



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 108 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G' B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024-yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo’yicha
ro’yxatdan o’tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomofova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida).....	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	
O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	



KONVERGENT TAHRIRIYAT MAS'ULIYATI: YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISH JARAYONINI YORITISH TENDENSIYALARI

Doniyorov Salim Musurmonovich

“Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka”
gazetalari tahririyati DM bosh muharriri,
filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada konvergent jurnalistikasining asosiy tamoyillari va ommaviy axborot vositalarining Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonini yoritishdagi innovatsion va samarali faoliyati chuqur tahlil qilinadi. Xususan, OAVda kuzatilayotgan zamonaviy integratsiyalashuv jarayonlari, raqamli platformalarning tez sur‘atlarda rivojlanishi, jurnalistikaning ko‘pformatlilikka o‘tishi hamda yangiliklar ishlab chiqarishdagi ko‘pkanallilik tendensiyalari ilmiy yondashuv asosida o‘rganiladi. Shuningdek, tahririyatlarning ijtimoiy mas‘uliyati va ularning davlat islohotlarini yoritish hamda ommaga yetkazishdagi strategik roli tahlil etiladi. Ushbu tadqiqot zamonaviy OAVning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va axborot maydonini rivojlantirishdagi dolzarb muammolarni aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: konvergent jurnalistika, tahririyat mas‘uliyati, Yangi O‘zbekiston, OAV islohotlari, media integratsiya, raqamli transformatsiya.

Abstract: This article presents a comprehensive analysis of the fundamental principles of convergent journalism and the innovative, effective role of mass media in covering the nation-building process of New Uzbekistan. Particular emphasis is placed on current trends in media integration, the rapid expansion of digital platforms, the transition to multi-format journalism, and the growing prevalence of multichannel news production. The study also investigates the social responsibility of editorial offices and their critical role in the accurate and meaningful coverage of governmental reforms. The findings of the research provide valuable insights into the key challenges facing modern media and highlight their influence on the evolution of the information environment and societal development in Uzbekistan.

Key words: convergent journalism, editorial responsibility, New Uzbekistan, media reforms, media convergence, digital transformation.

Аннотация: Статья посвящена всестороннему анализу ключевых принципов конвергентной журналистики и инновационной, эффективной деятельности средств массовой информации в освещении процесса построения Нового Узбекистана. Особое внимание уделяется современным тенденциям интеграции медиасреды, стремительному развитию цифровых платформ, переходу к многоформатной журналистике, а также расширению многоканального производства новостей. В рамках исследования рассматриваются вопросы социальной ответственности редакций и их значимая роль в объективном и содержательном освещении государственных реформ. Полученные результаты способствуют более глубокому пониманию актуальных вызовов, стоящих перед современными СМИ, и позволяют оценить их влияние на развитие информационного пространства и общественной жизни страны.

Ключевые слова: конвергентная журналистика, ответственность редакции, Новый Узбекистан, реформы СМИ, медиаконвергенция, цифровая трансформация.

KIRISH

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayoni jamiyat va davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan chuqur islohotlar, tizimli o‘zgarishlar hamda yangilanishlarni o‘z ichiga oladi. Keng ko‘lamli konstruktiv o‘zgarishlar fonida ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, an‘anaviy OAV muhim kommunikativ vosita sifatida alohida o‘rin egallaydi. Ilk bosqichlarda an‘anaviy OAV deganda, asosan, televideniye, radio, gazeta va jurnallar tushunilgan bo‘lsa, bugungi kunda raqamli transformatsiya sharoitida bu qatorga internet nashrlari, axborot portallari va ijtimoiy tarmoqlar ham qo‘shildi. OAV demokratik jarayonlarni yoritish, aholining ijtimoiy faolligini oshirish va davlat siyosatini tushunarli tilda ommaga yetkazish borasida o‘zining strategik ahamiyatini namoyon etmoqda.



Ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, an'anaviy OAV jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yoritish, aholining xabardorligini oshirish, ijtimoiy fikrni shakllantirish va fuqarolar bilan davlat o'rtasida samarali muloqot o'rnatishda beqiyos rol o'ynamoqda. Ular orqali aholiga ijtimoiy, siyosiy islohotlar, iqtisodiy dasturlar, Hukumat qarorlari hamda dolzarb ijtimoiy muammolar bo'yicha aniq, tezkor va ishonchli ma'lumotlar yetkazilmoqda. Bu esa axborot maydonining ochiqqligini ta'minlab, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, OAV tomonidan tayyorlanayotgan tahliliy materiallar, ekspert chiqishlari va jamoatchilik muhokamalari orqali jamiyatda turli nuqtayi nazarlar shakllanmoqda, ijtimoiy ong va tafakkur faolligi ortmoqda. Bunday sharoitda fikrlar xilma-xilligi, ochiqlik va tolerantlik asosidagi demokratik muhit barpo bo'lishi ta'minlanadi. OAV aholining jamiyat hayotidagi ishtirokini rag'batlantirish, jamoat ishlariga jalb etish, ijtimoiy va insonparvarlik loyihalarida faol qatnashishiga ko'maklashmoqda. Ayniqsa, madaniy-ma'rifiy targ'ibot faoliyati orqali milliy qadriyatlar, tarixiy meros va an'analar yosh avlod ongida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim omil bo'lmoqda.

Ulkan islohotlarda ommaviy axborot vositalari – Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida nafaqat axborot tarqatuvchi, balki islohotlarni yorituvchi, fuqarolik jamiyatini shakllantiruvchi va axborot makonini barqaror rivojlantiruvchi faol ijtimoiy institut sifatida maydonga chiqmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

An'anaviy ommaviy axborot vositalari (OAV) Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida muhim kommunikativ vosita sifatida ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bugungi sharoitda ular faqat dalillarni yetkazib beruvchi vosita emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni keng yoritish, jamoatchilik bilan muloqot olib borish va ijtimoiy faollikni rag'batlantirish kabi funksiyalarni ham bajarib kelmoqda. Shu sababli davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining OAVni qo'llab-quvvatlashi, ularning modomiki faoliyatini rivojlantirishga intilishi – Yangi O'zbekiston poydevorini mustahkamlovchi muhim omillardan biridir.

Zamonaviy media muhiti izchil yangilanishi barobarida mamlakatdagi islohotlarni yoritishning yangi mexanizmlari, uslubiy yondashuvlari va vositalari shakllanmoqda. Shubhasiz, ularning eng muhimlaridan biri – bu mediakonvergentsiyadir. Konvergentsion jurnalistika tushunchasi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan "yangi media" tushunchasi bilan bog'lab talqin qilinadi. Ba'zi holatlarda "konvergent OAV" atamasi "yangi media" iborasining sinonimi sifatida ham ishlatiladi ^[1]. Ilmiy adabiyotlarda "yangi media" tushunchasi nisbiy va muqobil parametrga ega bo'lgani bois, u ko'pincha qo'shtirnoq bilan ajratib ko'rsatiladi.

Zamonaviy sharoitda axborot, qadimgi davrlarda bo'lgani kabi, insoniyat hayotida muhim rol o'ynashda davom etmoqda. Axborot almashinuvi – inson va boshqa tirik mavjudotlar o'rtasidagi ijtimoiylashuv, xavfsizlik va hayotiy zaruriyatlarining asosiy vositasi hisoblanadi. Xudoyqulov Muxtor, filologiya fanlari doktori, professor Muxtor Xudoyqulovning ta'kidlashicha, "axborot" so'zi lotincha "informare" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "tushuntirish" yoki "biror narsa haqida tasavvur hosil qilish" degan ma'nolarni anglatadi. Unga ko'ra, axborot konsepsiyasining mohiyati modda va substansiyaning o'zaro ta'siri, ya'ni birgalikdagi harakat shakllari bilan bog'liq bo'lib, barcha kommunikativ jarayonlarning asosini tashkil etadi ^[2].

Konvergentsiya atamasi o'z mohiyatiga ko'ra "uyg'unlashuv" degan ma'noni bildiradi. Bu nafaqat texnologiyalarning uyg'unlashuvi, balki turli OAV shakllarining o'zaro birlashuvi va moslashuvchanligidir. Texnologik konvergentsiya raqamli vositalar (digitalizatsiya) bilan uzviy bog'liq bo'lib, internet-radio, internet-televideniye kabi yangi formatlarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa, o'z navbatida, OAV turlarini aniqlashda va tasniflashda murakkablik tug'diradi.

Iqtisodiy va sanoat nuqtai nazardan qaralganda, OAVdagi konvergentsiya texnologik taraqqiyot sabab ilgari bir-biriga kam bog'liq bo'lgan uchta asosiy soha – media sanoati (bosma OAV, TV, radio va kontent ishlab chiqaruvchilar), kompyuter texnologiyalari (axborot texnologiyalari) va kommunikatsiya sanoatining (telekommunikatsiya, efir texnologiyalari va telefoniya) o'zaro integratsiyalashuvi natijasida yuzaga kelmoqda ^[3].

Professional darajada esa konvergentsiya – har xil turdagi ommaviy axborot vositalari kontentini yagona raqamli formatga keltirish orqali yakuniy mahsulot yaratishga yo'naltirilgan tahririyat faoliyati bilan bog'liqdir. Bunda u – gazeta, radio yoki televideniye bo'lishidan qat'i nazar – kontent raqamli formatda ishlab chiqiladi.

So'nggi o'ttiz yil mobaynida raqamli texnologiyalarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning konvergentsiya tendensiyasiga ega bo'lishidir. Garchi bu hodisaning yagona va universal ta'rifi mavjud bo'lmasa-da, uni odatda sanoat tarmoqlari o'rtasidagi belgilangan chegaralarning innovatsion kesishmasida yuzaga keladigan yangi shakllanish deb izohlash mumkin. Texnologik konvergentsiya har qanday texnologik yechimni ishlab chiqish va joriy etishda zarur bo'lgan murakkab bilimlar yig'indisidir. Bu jarayon sanoat konvergentsiyasi, ya'ni bozordagi yangi ishtirokchilarning paydo bo'lishi va konsolidatsiyasi bilan bog'liq bo'lib, u jamiyat hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi ^[4].

O'zbekiston Respublikasini 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ¹, so'ng 2022–2026-illarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ² qabul qilinishi munosabati bilan har tomonlama va jadal rivojlanish uchun istiqbollar belgilab olindi. Mamlakatimiz OAV tomonidan yetakchi xorijiy mamlakatlar ommaviy axborot vositalarida joriy etilayotgan ilg'or yo'nalishlarni o'zlashtirish vektoridagi ishlar yangicha stimulga ega bo'ldi.

Ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalar asosida ommaviy axborot vositalarining jamiyat hayotidagi rolini, jurnalistlarning kasbiy faoliyatini himoya qilishni kuchaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlariga oid ma'lumotlarni taqdim etishning zamonaviy shakllarini joriy etish ko'zda tutilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 27-iyunda Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo'llagan tabrigi ³da, jumladan, shunday dedi:

“Biz Yangi O'zbekistonning yangi jurnalistikasini yaratish vazifasini o'z oldimizga qo'ygan ekanmiz, bu boradagi milliy an'analarimiz bilan birga rivojlangan davlatlar tajribasini ham har tomonlama o'rganishimiz, ommaviy axborot vositalari bo'yicha dunyodagi yetakchi oliygohlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar va media kompaniyalar bilan hamkorlik aloqalarini yanada kuchaytirishimizni hayotning o'zi talab etmoqda” ^[6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kontent tahlili, taqqoslash va kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Respublika miqyosidagi yetakchi OAV – televideniye, internet-nashrlar va bosma matbuot sahifalarida 2021–2024-yillar oralig'ida e'lon qilingan materiallar tahlil qilindi. Asosiy e'tibor konvergent jurnalistika tamoyillari asosida tayyorlangan axborot mahsulotlari, ularning mavzuiy yo'nalishi, yoritish uslubi hamda ijtimoiy mas'uliyat darajasiga qaratildi. Shuningdek, interaktivlik va multimedia elementlarining qo'llanilishi ham o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonning global axborot makoniga integratsiyalashgan media sohasi, ommaviy axborot vositalarining umumtarqalgan elektron “triadasi” – televideniye, radio va internet bilan ham gavdalanadi. Konvergensiya jarayonida ushbu ro'yxat sifat jihatdan keng tarqalgan “elektron gazeta” bilan to'ldirildi. 2000-yillardan boshlab ekrandagi nisbatan operativ ma'lumotlarga ega matnlar elektron gazeta deb hisoblana boshlandi. Keyinchalik elektron nashrlar ommaviy axborot vositalarining yangi turiga aylandi, shu bilan birga internet keng ma'noda ommaviy axborot vositasi sifatida ko'rildigan bo'ldi.

Elektron tarmoqni OAV hodisasi sifatida o'rganishda ikki yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin:

- Birinchisida, elektron ommaviy axborot vositalariga tematik, maqsadli yoki boshqa xususiyatlarga ko'ra bo'linishga, ma'lum bir tuzilishga ega bo'lgan barcha tarmoq makoni kiradi;
- Ikkinchi yo'nalishda, elektron ommaviy axborot vositalariga professional jurnalistlar tomonidan yaratilgan gazetalar, jurnallar, axborot agentliklari kiradi. Ular ham, o'z navbatida, bosma nashrlarning elektron versiyalariga va elektron nashrlarning o'ziga bo'linadi.

O'z-o'zidan elektron ommaviy axborot vositalarining O'zbekiston media bozorida yangi texnologiyalar sifatida tarqalishi ma'lum darajada OAV haqidagi tasavvurni o'zgartira boshladi. Texnologiyalarning jadal rivojlaniishi aloqalarni amalga oshirish, taqsimlash, namoyish qilish va saqlash usulini o'zgartirdi. Yangi texnologiyalar ilgarigidan ko'ra ko'proq axborot va ma'lumotlarni tarqatish hamda olish imkonini berdi.

1-rasmda konvergent jurnalistlarning zamonaviy media muhitida faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan asosiy raqamli ko'nikmalar majmuasi chiroq shaklida vizual tarzda ifodalangan. Tasvir markazida joylashgan 6 ta asosiy kompetensiya – kontent tayyorlash, onlayn joylashtirish, multimedia reportaj, veb-sayt tahrirlash, SEO optimizatsiya va grafik dizayn – konvergent jurnalistika talablariga javob beradigan funksional ko'nikmalarining har tomonlama uyg'unligini aks ettiradi. Har bir ko'nikma o'ziga xos belgilar orqali tasvirlangan bo'lib, bu o'quvchi va mutaxassislar uchun axborotni tez va aniq idrok etishga yordam beradi. Grafikda jurnalistlarning texnologik bilim va amaliy malakalari zamonaviy OAV tarmoqlarida muvaffaqiyatli ishlashlari uchun muhim vosita ekani ko'rsatib berilgan.

O'zbekistonning ko'plab yetakchi bosma nashrlari zamon talablariga tezkor javob qaytarib, o'z gazetalarining elektron versiyalarini yaratishga harakat qilgani bejiz emas. 10–12 yil avval raqamli versiyani juda ko'p odamlar olishi mumkinligi ayon edi. Elektron gazeta qulayroq: sevimli nashrni uyda, ishda yoki mobil telefonda


1 <https://lex.uz/docs/-3107036>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

3 <https://president.uz/oz/lists/view/6442>



o'qish mumkin. Keyinchalik muhokama qilinadigan ba'zi nodavlat nashrlar gazetalarining elektron versiyalarini, hattoki nashr etishga imzo chekilishidan oldin taklif qila boshladilar. O'quvchini xabardor qilish samaradorligi oshdi, bu esa elektron matbuotning tezligidan past bo'lgan bosma nashrlar uchun juda muhim ahamiyat kasb etdi.



1-rasm: Konvergent jurnalistlar uchun raqamli ko'nikmalar majmuasi⁴

Gazeta va jurnallar uchun elektron ommaviy axborot vositalarining yana bir afzalligi – ularning interaktivligi bo'lib, o'quvchilar bilan muloqot rejimida o'zaro suhbatlashish imkonini beradi. Shu munosabat bilan, bugungi kunda tarmoq ommaviy axborot vositalarining rivojlanish segmentidagi innovatsiyalar uchun O'zbekiston bosma nashrlari veb-saytlarini to'ldirishni o'rganish, zamonaviy media-sferani o'zgartirish sharoitida gazetalar kommunikativ strategiyalarining samaradorligini tahlil qilish bo'yicha tadbirlar ayni paytda juda dolzarb hisoblanadi.

Bugun O'zbekiston bosma nashrlari veb-saytlarining tarmoq OAVning rivojlanayotgan segmentida innovatsiyalar bilan to'ldirilishini o'rganish, zamonaviy media sohasi transformatsiyasi sharoitida gazetalar kommunikativ strategiyalarining samaradorligini tahlil qilish bo'yicha faoliyat ham dolzarblik kasb etmoqda. Ommaviy axborot vositalarining internetga ko'chishi axborot jarayonlarining tubdan yangi turlari paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Shu munosabat bilan ijodiy faoliyatning maxsus turi sifatida multimedia tarkibini yaratish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, bosma nashrlarning veb-versiyalari orqali zamonaviy axborot makonida jurnalistik materiallarni nashr etishning eng keng tarqalgan modellarini tahlil qilish zarur hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston tahririyatlarida faoliyat yuritayotgan konvergent jurnalistlarning axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalari aks ettirilgan (1-jadval).

1-jadval: O'zbekiston tahririyatlaridagi konvergent jurnalistlar IT ko'nikmalari⁵

No	Ko'nikma turi	Jurnalistlar ulushi (%)	Izoh
1	Matnli kontent tayyorlash (Word, PDF)	90	Aksariyat jurnalistlar asosiy matn editorlaridan foydalanadi.
2	Foto va video montaj (bazi)	65	Oddiy kesim, sarlavha qo'yish, audio muvofiqlashtirish.
3	Onlayn platformalarda post joylashtirish	72	Facebook, Telegram, Instagram kabi tarmoqlarda chiqish.
4	Grafik dizayn (Canva, Photoshop)	38	Infografika, post vizual dizaynini tayyorlash qobiliyati cheklangan.
5	Multimedia reportaj tayyorlash	45	Matn, foto, audio, video aralashgan xabar tayyorlash.
6	SEO optimizatsiya asoslari	21	Ko'pchilik jurnalistlar SEO atamalarini yaxshi bilmaydi.
7	Veb-sayt tahrir platformalaridan foydalanish	54	WordPress, Tilda kabi tizimlarda maqola joylash.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, jurnalistlarning aksariyati, ya'ni 90 foizi matnli kontent tayyorlashda yuqori malakaga ega bo'lib, Word va PDF kabi dasturlarni erkin qo'llaydi. Bu ularning asosiy kasbiy vazifalarini bajarish

⁴ Muallif ishlanmasi.

⁵ <https://gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/download/924/828>



uchun yetarli bilim va ko'nikmaga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq foto va video montaj qilish ko'nikmasi 65 foiz atrofida bo'lib, bu ko'rsatkich multimedia jurnalistikasi talablariga to'liq javob bermasligini anglatadi.


Shuningdek, jurnalistlarning 72 foizi onlayn platformalarda post joylashtira olsa-da, grafik dizayn ko'nikmasi (Canva yoki Photoshop) atigi 38 foizni tashkil qilmoqda. Bu esa kontentni vizual jihatdan jozibali qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi. Multimedia reportaj tayyorlash bo'yicha ko'nikmaga ega jurnalistlar ulushi 45 foiz bo'lib, bugungi konvergent jurnalistika talablariga nisbatan past ko'rsatkichdir.

Ayniqsa, SEO optimizatsiya ko'nikmalarining atigi 21 foiz jurnalistlarda mavjudligi jiddiy muammo hisoblanadi, chunki raqamli media muhitida maqolalarning qidiruv tizimlarida yuqori o'rin egallashi muhim ahamiyat kasb etadi. Veb-sayt tahrir platformalaridan foydalanish ko'rsatkichi esa 54 foizni tashkil etadi, bu esa tahririyyatlar onlayn kontent ishlab chiqarish va joylashtirish jarayonida barqarorlikni ta'minlash uchun yetarli emasligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, jadval O'zbekiston jurnalistlari orasida IT bo'yicha bazaviy ko'nikmalar mavjudligini, ammo konvergent jurnalistikaning ilg'or texnologik talablarini to'liq qamrab olish uchun maxsus tayyorgarlik va o'quv dasturlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda bosma ommaviy axborot vositalarining kommunikativ makonini jadal rivojlantirish zarurati o'tgan o'n yillik boshlarida yaqqol namoyon bo'ldi, bugungi kunda esa ushbu masalaning dolzarbligi ortib bormoqda. Bunday jarayonlar so'nggi paytlarda axborot maydonining tuzilishi, auditoriyaning qaysi mediani afzal ko'rish, OAV va aholining texnologik jihozlari tubdan o'zgargani natijasida yuzaga keldi.

Quyidagi rasmda O'zbekistonda 2010–2024-yillar davomida elektron ommaviy axborot vositalarining rivoji bilan chambarchas bog'liq bo'lgan internet foydalanuvchilari sonining o'sish dinamikasi aks ettirilgan (1-rasm).



2-rasm: O'zbekistonda elektron OAV sonining 2010–2024-yillardagi o'sish dinamikasi⁶

Rasmdan ko'rinib turibdiki, so'nggi 14 yilda internet foydalanuvchilari soni keskin darajada oshgan.

- 2010-yilda internet foydalanuvchilari soni taxminan 4,5 million atrofida bo'lsa,
- 2015-yilga kelib bu ko'rsatkich 9,8 millionga yetdi,
- 2020-yilda deyarli 2 barobar o'sib, 19,2 millionni tashkil etdi,
- 2024-yilda esa 29,52 million foydalanuvchigacha ortib, internet qamrovi 83,3% darajaga yetdi.

Bu o'sish dinamikasi elektron OAVning ommalashishi, konvergent tahririyyatlar soni ortishi va media maydonining raqamlashuvi uchun mustahkam zamin yaratganini ko'rsatadi. Hozirgi kunda internet nafaqat axborot olish, balki tarqatish, muloqot va ijtimoiy faollik platformasi sifatida OAVning asosiy kanaliga aylangan.

Hozir yurtimizda 1500 dan ortiq ommaviy axborot vositasi faoliyat yuritmoqda. Qariyb barchasi faol veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga ega. Shu bilan birga, ushbu saytlarning ishlashi media maydoniga ta'sir qilish mexanizmlari to'g'risida tizimlashtirilgan tasavvurning yetishmasligini ko'rsatmoqda. Chunki konvergent

6 Muallif ishlanmasi.



jurnalistikaning ushbu segmenti rivojlanishiga ta'sir etuvchi ilmiy tadqiqotlar hali metodologiya va konseptual asosga ega alohida yo'nalish sifatida shakllanmagan.

Internetning milliy segmentida bosma ommaviy axborot vositalarining veb-versiyalari faoliyati darajasini, ular foydalanadigan kommunikativ strategiyalarni hamda ish samaradorligini aniqlash uchun mazkur tadqiqot muallifi bir qator baholash mezonlariga tayanishga qaror qildi. Ular qatorida ishtirokchilar soni, internet-kontentning noyoblighi, yangilanish chastotasi, multimedia'dan foydalanish (fotosuratlar, audio va video materiallar), interaktivlik hamda ijtimoiy tarmoqlarda profillarning mavjudligi kabi mezonlar xizmat qilgan.

XULOSA

Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasi matbuoti tomonidan media makonning mediakonvergensiya sharoitida yangi platformalarni o'zlashtirish bilan bog'liq boshqa parametrlarga ham e'tibor qaratildi. Masalan, tashqi mustaqil o'lchash uchun mo'ljallangan internet xizmatlaridan foydalangan holda sayt tarmog'ini tekshirish shuni ko'rsatdiki, barcha saytlar ham bunday hisoblagichlardan foydalanmaydi va agar sayt egasi kirishni ommaviy ko'rishdan yashirgan bo'lsa, uni ishonchli tekshirish imkonsizdir. Kirish hisoblagichi saytlarni kirish bo'yicha saralab, ma'lum darajada reyting vazifasini bajarishi, shuningdek, katalog sifatida ishlatilishi mumkin, chunki reytinglar odatda tematik tarzda tuzilgan bo'ladi.

Mediametrik ko'rsatkichlardan internet OAVning ommaviy axborot faoliyatining kontent jihatlariga o'tish va umuman saytlarni rivojlantirishning ikkita asosiy strategiyasini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchi holda, elektron versiya bosma nashrning shunchaki boshqa shakldagi raqamli muqobilidir. Bunday holda, veb-resurs gazeta mazmuni bilan bir xil bo'ladi. Odatda bunday saytlar past kirishga ega. Biroq bunday strategiya O'zbekistonning kommunikatsiya muhitida keng tarqalgan. Bunga amaldagi qonunchilik ma'lum darajada yordam beradi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunida 27-moddada davriy bosma nashrning elektron versiyasiga bag'ishlangan.

Me'yoriy-huquqiy hujjatda davriy bosma nashrning elektron shakli davriy bosma nashrni tarqatish usullaridan biri ekani belgilangan. Shu bilan birga, tegishli davriy bosma nashrning bosma va elektron shakllarining mazmuni aynan bir xil bo'lgan hamda qonunchilik talablariga rioya etilgan taqdirda, davriy bosma nashr tahririyati davriy bosma nashrning elektron shaklini mustaqil ommaviy axborot vositasi sifatida ro'yxatdan o'tkazmasdan tarqatishga haqli ekani ko'rsatilgan. Davriy bosma nashr tahririyati elektron shakl tarqatilishi to'g'risida ro'yxatdan o'tkazuvchi organi yozma shaklda xabardor qilishi shart. Aks holda, mazkur Qonunda ko'rsatilganidek, elektron versiya faqat bosma nusxani to'liq takrorlashi mumkin, normativ hujjatda ko'rsatilgan bandlar bundan mustasno. Davriy bosma nashrning bosma shaklida mavjud bo'lgan reklama xabarlarining elektron shakldan olib tashlanishi va (yoki) butunlay yoki qisman almashtirilishi, shuningdek, elektron shaklda ifodalangan materiallar hajmining bosma shaklidagiga nisbatan qisqartirilishi mazmunning aynan bir xilligi buzilishi deb qaralmaydi.

Shu asosda quyidagi istiqbolli takliflarni ilgari surish mumkin:

- Raqamli jurnalistika standartlarini joriy etish:** OAVlar uchun yagona texnik va axloqiy mezonlarga asoslangan raqamli jurnalistika bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqilishi lozim. Bu, ayniqsa, kontent ishlab chiqarish, dizayn, SEO va analitik kuzatuv mezonlarini qamrab olishi kerak.
- Media reyting tizimini mustahkamlash:** saytlar uchun ochiq va shaffof statistik kuzatuv mexanizmlarini tatbiq etish, Google Analytics, SimilarWeb, yoki mahalliy alternativ tizimlar orqali reytingni aniqlash tartibini qonuniylashtirish zarur.
- Interaktiv va multimedia kontentga o'tish:** bosma nashrlarning elektron nusxalari faqatgina tekst asosida emas, balki infografika, video, audio-podcastlar, interaktiv materiallar bilan boyitilishi kerak. Bu esa o'quvchi e'tiborini tortish, ishtirokchanlikni oshirishga xizmat qiladi.
- Konvergent tahririyat modelini joriy etish:** har bir yirik OAVda yagona tahririy muvofiqlashtiruvchi markaz tashkil etilishi, u orqali gazeta, sayt, ijtimoiy tarmoq va efir materiallari yagona kontent siyosati asosida boshqarilishi maqsadga muvofiqdir.
- Media savodxonlik va raqamli kompetensiyani oshirish:** jurnalistlar va tahririyat xodimlari uchun raqamli savodxonlik, raqamli xavfsizlik, algoritm asosida kontent targ'iboti, onlayn trendlar monitoringi kabi yo'nalishlarda doimiy malaka oshirish kurslarini yo'lga qo'yish lozim.
- Normativ-huquqiy mexanizmlarni yangilash:** "OAV to'g'risida"gi qonun va unga oid boshqa normativ hujjatlarda elektron ommaviy axborot vositalarining alohida maqomini, ularning tartibga solish, akkreditatsiyadan o'tkazish va monitoring qilish mezonlarini aniq belgilovchi qo'shimchalar kiritilishi zarur.

Bir so'z bilan aytganda O'zbekiston OAVlari mediakonvergensiya sharoitida zamonaviy va funksional axborot tizimiga aylanishi uchun ichki struktura, texnologik imkoniyat va strategik yondashuvlarni uyg'unlashtirishi zarur. Bu esa Yangi O'zbekistonning ochiq, demokratik va axborotga asoslangan jamiyat sifatida shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Internet-SMI. Teoriya i praktika: O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari talabalari uchun / M. Lukina tahriri ostida. – M.: Aspekt Press, 2016. – B. 143.
2. Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. – T.: TAFAKKUR, 2010. – 7-bet.
3. Anholt S. Brand New Justice: The Upside of Global Branding. Oxford: Butterworth-Heinemann, 2017. – 245 p.
4. Vartanova Ye.L. K chemu vedet konvergentsiya SMI? – M.: Informatsionnoe obshchestvo, 2019. – B. 11–14.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/5841077>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. <https://president.uz/ru/lists/view/6442>
7. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni. <https://www.lex.uz/acts/53543>
8. <https://gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/download/924/828>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.